



Qurilish ishlari

hajmi

3207,6 mIrd. so'm

yirik pudrat
tashkilotlari ulushi
1,5 %

Kichik korxona va
mikrofirmalar ulushi
62,4 %

Norasmiy sektor
ulushi
36,1 %

2019 yilning yanvar – sentyabr oylarida **QURILISH ISHLARI**

2019 yilning yanvar – sentyabr oylarida Samarqand viloyatida **3207,6** mIrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan 2018 yilning shu davriga nisbatan **125,7** foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi **46,6** mIrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **122,4** foizni tashkil qildi.

Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi **2002,4** mIrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **144,4** foizni tashkil qildi.

Norasmiy sektorda qurilish montaj ishlari hajmi **1158,6** mIrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan **101,6** foizni tashkil etdi.

Qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yirik

pudrat
tashkilotlari

➤ **46,6**
mIrd. so'm

➡ **122,2 %**
o'sish sur'ati

Kichik

tashkilotlar
va mikrofirmalar

➤ **2002,4**
mIrd. so'm

➡ **144,4 %**
o'sish sur'ati

Norasmiy

sektorlar
tomonidan

➤ **1158,6**
mIrd. so'm

➡ **101,6 %**
o'sish sur'ati



Qurilish ishlaringning faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringning asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning hajmi **2480,7** mldr. so'mni yoki jami hajmga nisbatan **77,3** % ni, o'sish sur'ati **121,1** % ni tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda **304,8** mldr. so'mni yoki jami hajmga nisbatan **9,5** % ni, o'sish sur'ati **73,9** % ni tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari **422,1** mldr. so'mni yoki jami hajmga nisbatan **13,2** % ni, o'sish sur'ati **110,0** % ni tashkil etdi.



Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun mo'ljallangan uy-joylarni qurish, avtomobil yo'llarini ta'mirlash, yangi qurilish, rekonstruksiya, ijtimoiy soha obyektlari (maktablar, maktabgacha ta'lim muassasalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.



Iqtisodiy faoliyat turlarining mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari





Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan **2773,7** mldr. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining **86,6** foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning o'sish sur'atiga nisbatan **11,4** bandga kamaydi.



Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan **433,9** mldr. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish montaj ishlari hajmidagi ulushi **13,4** foizini tashkil qildi.




Hududlar kesimida qurilish ishlari

	Jami mlrd. so'm	o'tgan yilga nisbatan, (%)	jami hajmga nisbatan ulushi, (%)
Viloyat bo'yicha	3207,6	125,7	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Samarqand sh.	1017,3	123,9	31,7
Kattaqo'rg'on sh.	70,5	135,3	2,2
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	254,8	138,3	7,9
Bulung'ur	89,4	119,0	2,8
Jomboy	169,0	127,9	5,3
Ishtixon	165,8	126,8	5,2
Kattaqo'rg'on	121,7	129,8	3,8
Qo'shrabot	105,3	133,9	3,3
Narpay	117,7	114,7	3,7
Nurobod	90,4	168,3	2,8
Payariq	193,9	123,6	6,0
Pastdarg'om	200,0	124,1	6,2
Paxtachi	109,3	116,6	3,4
Samarqand	163,2	129,9	5,1
Tayloq	150,8	115,1	4,7
Urgut	188,5	118,9	5,9



Hududlar kesimida qurilish ishlari

(mlrd. so'm)




Qurilish ishlari hajmini o'tgan yilga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichda bajarilishi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi. Jumladan: Samarqand shahrida – **1017,3** mlrd. so'm, Oqdaryo tumanida – **254,8** mlrd. so'm, Pastdarg'om tumanida – **200,0** mlrd. so'm, Payariq tumanida – **193,9** mlrd. so'm hamda Urgut tumanida – **188,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.






Hududlar kesimida qurilish ishlari



Qurilish ishlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan eng yuqori darajadagi o'sish sur'atlari quyidagi hududlarda kuzatildi. Jumladan: Nurobod tumanida – **168,3 %**, Samarqand shahrida – **123,9 %**, Qo'shrabot tumanida – **133,9 %**, Pastdarg'om tumanida – **124,1 %** va Payariq tumanida – **123,6 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari

(jami hajmga nisbatanfoizda)



Samarqand viloyat statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi

bo'limi



Nashr uchun mas'ul:

Aloqa telefoni:

I.Raxmatov

(66) 235-60-82

(71) 230-85-33